

RAQAMLI IQTISODIYOTDA YOSHLARNI MEHNAT BOZORIDA ZAMONAVIY KASB-HUNARGA O‘QITISH MASALALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

Bahodirov Saidahrur Murodbek o‘g‘li

*Andijon viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi
“Mehnat bozori tahlili, bo‘sh ish o‘rinlari hisobni yuritish
va ishga joylashtirish sho‘basi” mudiri*

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlarni mehnat bozori talablariga mos ravishda zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish masalalari tahlil qilinadi. Bugungi kunda texnologiyaning tez sur‘atlarda rivojlanishi mehnat bozorida yangi turdagi kasblarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Shuningdek, an‘anaviy kasblar mazmuni ham o‘zgarib bormoqda. Mazkur jarayonda yoshlarni raqamli ko‘nikmalarga ega qilib tayyorlash, ta‘lim va kasb-hunar o‘rgatish tizimini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshirilayotgan tashabbuslar, shuningdek, xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Shu asosda raqamli iqtisodiyotda yoshlar bandligini ta‘minlash va ularni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, yoshlar, mehnat bozori, zamonaviy kasb-hunar, raqamli ko‘nikmalar, kasb-hunar ta‘limi, ish bilan ta‘minlash, raqobatbardosh kadrlar, ta‘lim islohotlari, raqamlashtirish, kasbiy tayyorgarlik, innovatsion ta‘lim, raqamli savodxonlik, Andijon viloyati.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyoti raqamli transformatsiya bosqichiga kirgan bo‘lib, bu jarayon mehnat bozorida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Jahon bankining 2023 yildagi hisobotiga ko‘ra, 2030 yilgacha mavjud kasblarning kamida 40 foizi raqamli texnologiyalar ta‘sirida yo‘qolishi yoki tubdan o‘zgarishi kutilmoqda [4]. Xususan, "Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti" davlatlarida 16-24 yoshli yoshlar orasida raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lganlar ulushi 58 foizni, Markaziy Osiyo davlatlarida esa bu ko‘rsatkich 30–35 foizni tashkil etmoqda [5].

Bu tendensiyalar O‘zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Chunki mamlakatda yoshlar ulushi jami aholining 60 foizini tashkil qilib, ular mehnat bozorining eng faol qatlamini tashkil etadi[6]. Biroq, ularning katta qismi zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kasbiy ko‘nikmalarga yetarli darajada ega emas. Masalan, 2024 yilda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan IT, grafik dizayn, veb-dasturlash, raqamli marketing kabi sohalarda mutaxassislar yetishmovchiligi 20 foizdan ziyodni tashkil etgan[7].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish, ish beruvchilar bilan ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, hamda amaliy malakaga yo'naltirilgan dasturlarni joriy etishni talab qiladi. Finlyandiya, Singapur va Germaniya kabi davlatlarda yoshlar bandligini ta'minlashda raqamli ta'lim platformalari va dual ta'lim tizimi yuqori samara bermoqda. Masalan, Singapurda 2022 yilda raqamli qayta tayyorlash (reskilling) dasturlari orqali 25 yoshdan kichik yoshlarning 74 foizi yangi kasbda ish boshlagan[5].

Shu munasabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirirish va bandlik vazirligining hududiy boshqarmasi Andijon viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining ma'lumotlari tahlil qilindi.

Jumaladan, 2025 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, Andijon viloyati aholisi soni 3,3 million nafarni tashkil etib, shundan 763,2 ming nafar yoki 23 foizini 16–30 yoshli yoshlar tashkil etadi. Demak, viloyat aholisining har to'rtinchi qismi mehnat bozoriga yangi kirib kelayotgan yoshlardan iborat[7].

Viloyat aholisining o'rtacha yoshi 29 yosh bo'lib, bu demografik jihatdan aholining ishga layoqatli va faol qatlami ko'pchilikni tashkil etayotganini ko'rsatadi (erkaklar — 28, ayollar — 30 yosh) [7].

2025 yil boshiga kelib, Andijon viloyatida 1424,2 ming nafar iqtisodiy faol aholi qayd etilgan bo'lib, shundan 763,2 ming nafar yoki 54 foizi yoshlardir. Bu ko'rsatkich viloyatda mehnat bozoridagi asosiy bosim va ehtiyoj aynan yoshlar hisobiga yuzaga kelayotganini anglatadi[7].

Viloyatda 1 347 ming nafar kishi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band, ular orasida 471 ming nafar yoki 32 foizi yoshlardir. Bu esa shuni anglatadiki, iqtisodiy faol yoshlarning to'liq qismi ishga joylashmagan — muayyan qismini ishsizlar, ta'limda yoki mehnat bozoriga kirish arafasida turganlar tashkil etmoqda[7].

Shu bilan birga, viloyatda 77 ming nafar kishi ishga muhtoj, ulardan 38,5 ming nafari yoshlar bo'lib, bu 46 foizni tashkil etadi. Bu raqamlar yoshlar bandligini ta'minlash va ularni mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlashni isloh qilish zarurligini ko'rsatadi[7].

Musbat tendensiya sifatida, 2024 yilda yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi 12,5 foizdan 7,5 foizgacha kamaygani kuzatilgan. Bu esa davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natija berganini, biroq hali ham oldinda yechilishi lozim bo'lgan muammolar borligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda Andijon viloyatida ishsiz aholini kasb-hunarga tayyorlash va tadbirkorlikka yo'naltirish maqsadida amaliy chora-tadbirlar ko'rilmogda. Jumladan, hududda Andijon shahar, Shahrixon, Asaka va Qo'rg'ontepa tumanlarida joylashgan 4 ta kasb-hunarga o'qitish markazi hamda 10 dan ortiq nodavlat ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda o'quv jarayonlari yo'lga qo'yilgan.

(4th international scientific and practical conference)

Mazkur muassasalarda mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda 22 ta turdagi kasb-hunar yoʻnalishlari boʻyicha yillik 24 ming 690 nafardan ortiq oʻquvchi qamrab olish imkoniyati mavjud.

2025 yil uchun jami 22 ming 692 nafar ishsiz fuqaroni, jumladan kambagʻal oilalar aʼzolarini kasb-hunarga oʻqishga jalb etish belgilangan. Shundan:

“Kasbiy taʼlim dasturi” asosida 19 ming 497 nafar, “Raqamlashtirish orqali farovonlik sari” dasturi boʻyicha 2 ming 795 nafar, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi texnikumlar qoshidagi qisqa muddatli kurslar orqali 400 nafar fuqaro kasbiy va tadbirkorlik koʻnikmalariga ega boʻlishi koʻzda tutilgan.

Joriy yilning yanvar–may oylarida 9 ming 730 nafar fuqaroni oʻqishga jalb etish rejalashtirilgan boʻlib, amalda 13 ming 319 nafar ishsiz shaxs kasb-hunar va tadbirkorlikka oʻqishga yoʻnaltirildi. Bu esa besh oylik topshiriqning 137 foizga bajarilganini koʻrsatadi.

Oʻqishga jalb etilgan fuqarolar tarkibidan:

1 ming 356 nafari “Ijtimoiy daftar”da roʻyxatda turgan boʻlib, shundan 1 ming 303 nafari “Ayollar daftari”, 38 nafari — “Yoshlar daftari”, 15 nafari “Temir daftar” ishtirokchilari hisoblanadi.

Shuningdek, 1 ming 179 nafar mehnat muhojirlari va 121 nafar nogironligi boʻlgan shaxslar ham oʻqishga jalb etilgan. Ularning har biriga davlat tomonidan ijtimoiy himoya sifatida stipendiya toʻlovlari tayinlangan.

2025 yilning shu davriga qadar kasb-hunar oʻquv kurslarini 3 ming 897 nafar shaxslar tamomlagan boʻlib, ulardan 3 ming 757 nafarining (96 foiz) bandligi taʼminlandi[7].

Xususan, 3 ming 475 nafar oʻqitilgan yoʻnalishi boʻyicha doimiy ishga joylashgan, 242 nafar oʻzi oʻrgangan sohasi boʻyicha oʻzini oʻzi band qilgan, 35 nafar yakka tartibda tadbirkorlik faoliyatini boshlagan, 5 nafar xorijda mehnat faoliyatini boshlagan.

Qolgan 140 nafar fuqaroning bandligini taʼminlash boʻyicha ishlar davom etmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Andijon viloyati mehnat bozorida raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlarga tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etayotgani yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Bugungi kunda, viloyatda yoshlar oʻrtasida eng dolzarb boʻlgan, 2 ming IT sohasiga, 770 nafar internet-marketolog, 680 nafar logistika operatori, 350 nafar avtotyuning mexanigi, 200 nafar elektromobillarni texnik taʼmirlash va xizmat koʻrsatish, 170 nafar liftyor va chillerlarni taʼmirlovchi kabi kasblarga ehtiyoj yuqori.

Mehnat bozorida talab boʻlmagan, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida qiziqish kam boʻlgan kasblar, xususan, kotib-resepshionist, ofitsiant, gʻisht teruvchi, betonchi, suvoqchi, boʻyoqchi kabi kasblarga oʻqitish kamaytirish[7].

(4th international scientific and practical conference)

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ushbu kasblar uchun to'lanadigan ish haqi ham 1,5-2,0 mln.so'm bo'lib, yoshlar asosan 4-5 mln.so'mdan ish haqi to'lanadigan kasblarga o'qishga qiziqishmoqda.

Andijon viloyatining kasbiy ko'nikmalar markazlarida, mehnat bozori talabi va hududlar solihiyatidan kelib chiqib, qo'shimcha tarzda yangi kasblarga o'qitish takliflari beriladi[7].

Elektromobillarni ta'mirlovchi va xizmat ko'rsatuvchi chilangar, Muqobil va noan'anaviy energiya manbalariga xizmat ko'rsatish qurilmalari bo'yicha texnik, Elektr ko'targichlarni (*lift va eskalatorlarni*) ta'mirlash va xizmat ko'rsatish chilangari, Zamonaviy suv tejoychi sug'orish texnologiyalariga xizmat ko'rsatuvchi texnik, Og'ir yuklarni ko'tarish, ortish va tashish yo'nalishlari, Havoni tozalash, sovitish moslamalarini ta'mirlash bo'yicha chilangar, Landshaft, interer dizayneri, Alyuminiy va plastik profillar ustasi, Avtotyuning mexanigi, Videograf-mobilograf, Raqamli marketolog, Mobil ilovalar yaratuvchi dasturchi, kabi kasb mutaxassisliklari joriy etilishi zarur bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Andijon viloyatining 2025 yil 1 yanvar holatida demografik ko'rsatkichlari." URL: <https://stat.uz>
2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) – "Ish bilan ta'minlash va mehnat bozori ko'rsatkichlari, 2024 yil" URL: <https://my.gov.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 17 yanvardagi **PQ-12-son** qarori – "2024-2025 yillarda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida." URL: <https://lex.uz/docs/6790191>
4. World Bank Group. *World Development Report 2023: Jobs and Digital Transformation*. Washington, DC: The World Bank, 2023. DOI: 10.1596/978-1-4648-1884-2
5. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). *Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Youth*. Paris: OECD Publishing, 2023. URL: <https://www.oecd.org/education/oecd-skills-outlook-2023>
6. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of Uzbekistan. "Yoshlar bandligi va raqamli ta'lim dasturlari." Toshkent, 2024.
7. Andijon viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi tomonidan yoshlarga ko'rsatilgan bandlik xizmatlari to'g'risida statistik ma'lumotlar.